kur fe'lni sabab fe'llar turkumiga kiritishgan. Eganing harakati shaklga o'tganligi bois ushbu fe'lni o'timli fe'llar turiga kiritsak bo'ladi. Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan **weorpan** fe'li o'rta ingliz tili davriga kelib **werpen** shakliga o'zgardi va "shoshilmoq" ma'nosini ifodalay boshladi. Mazkur fe'l o'rta ingliz tili davrida ham o'timlilik shaklini saqlab qolgan lekin sabab fe'llari turkumiga kiritilmagan.

11. Ich leote … a cleane mon wunien neh a cleane wummon þet ich nawhit towart ham ne **warpe** ne ne weorri, ah leote ham al iwurðen. Mazkur misolda **werpen** fe'li "shoshilmoq" ma'nosida ifodalan-gan. Bu yerda ega emas, balki shakl harakatlanayotgani aks ettirilgan, ya'ni harakat ega sabab yuzaga kelmagan. Bunda harakat makon va yo'nalishning o'rtasida bo'lib o'tgan.

12. I rede ȝe…warpes wylily awaye. Subyekt harakatni ifodalamagan balkim, shaklni harakatga keltirgan. Shunday qilib, qadimgi ingliz tilida ishlatilgan "weorpan" fe'li o'timli sabab fe'llar turkumiga kiritilgan va bu fe'l o'rta davr ingliz tiliga kelib, o'timli fe'llar guruhiga tegishli bo'lgan. Keltirilgan dalillarga asoslanib, qadimgi va o'rta davr ingliz tilida ishlatilgan fe'llar bugungi davrda ya'ni zamonaviy ingliz tili davrigacha ham saqlanib kelgan va ular quyidagicha ko'rinishga ega:

1-jadval

Harakat fe'llarining semantik taraqqiyoti

№	Qadimgi	O'rta	Hozirgi
1.	sīþian	sweien	to move, go, go quickly
2.	swengan	swengen	hasten
3.	weorpan	werpen	to hasten, rush

Xulosa. Materiallarning dalilicha, qadimgi ingliz tilida ishlatilgan fe'llar bir qancha turlarga bo'lingan va ushbu turlar bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Fe'llar sabab fe'llari, holat fe'llari va harakat fe'llari kabi turkumlarga ajratilgan. Ulardan eng katta turkum harakat fe'llari turkumi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan misollardan qadimgi ingliz tilida fe'llar o'timli va o'timsiz kabi turlarga bo'linganligini ham ko'rishimiz mumkin. Bunda harakat subyektdan shaklga o'tganligi aks ettirilgan. Misollardagi keltirilgan harakatlarda yo'nalish fe'llarini ham kuzatish mumkin. Grammatik shakllarning fe'llarga ta'sir etganligi bois ularning ba'zilari o'rta ingliz tili davriga kelib o'zgarib ketgan, ba'zilari esa umuman shaklini yo'qotgan. Ko'p holatlarda, ma'nosi ham o'zgarib ketganligini yuqorida keltirilgan misollar bilan isbotlashga harakat qildik. Mazkur maqolada biz ko'rib chiqqan fe'llar bugungi kunga qadar saqlanib qolgan ammo juda ko'p o'zgarishlarga sabab bo'lganligini kuzatishimiz mumkin.

Qadimgi ingliz tilidagi bu fe'llar vaqt o'tishi bilan semantik jihatdan ko'p qirrali rivojlangan va ba'zilari bugungi ingliz tilida iz qoldirgan. Ushbu jarayonlar so'zlarning ijtimoiy va madaniy kontekstlari, shuningdek, boshqa tillar bilan muloqoti orqali boyitilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Fanego T.K. Motion events in English. The emergence and diachrony of manner salience from Old English to Late Modern English. Folia Linguistica Historica, 2012, 250 p.

(2). Filipović L.M., Kasia M.J. Space and time in languages and cultures. Amsterdam: John Benjamins, 2012, 550 p.

(3). Goldberg A.E. Constructions at work. The nature of generalization in language. Oxford: Oxford University Press, 2006, 350 p.

(4). Huber J.P. Caused- motion verbs in the Middle English intransitive motion construction. 2013, 265 p.

(5). Bosworth T., Joseph B., Northcote T. An Anglo-Saxon dictionary. Oxford: Oxford University Press, 1882, 2450 p.

(6). Niles J.D. Compound diction and the style of Beowulf. English Studies 62(6). 1981, 483 p.

Yusupova Gulxumor (Urganch davlat universiteti "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi tayanch doktoranti, Urganch, 220100, O'zbekiston; e-mail: yusupova.gulkhumor@mail.ru**),**
Matsabirova Durdona Maksudjon qizi (Urganch davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (nemis tili) ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi)

MADANIYAT, TARJIMA VA GENDER: TIL VOSITASIDA MADANIY MEROSNI YETKAZISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI

Annotatsiya. *Maqolada madaniyat, tarjima va genderning o'zaro aloqalari o'rganiladi. Ingliz, o'zbek, nemis va rus tillaridan misollar orqali gender stereotiplari va til birliklarining tarjimada qanday o'zgarishi tahlil qilinadi. Madaniy ma'nolarni to'g'ri yetkazish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *madaniyat, tarjima, gender, til, madaniyatlararo muloqot, gender stereotiplari, jinsiy differensiatsiya, ijtimoiy rol va mavqe, madaniy meros.*

Юсупова Гулхумор (докторант кафедры "Теории и практики перевода" Ургенчского государственного университета, Ургенч, 220100, Узбекистан; e-mail: yusupova.gulkhumor@mail.ru**),**
Матсабирова Дурдона Максуджон кизи (студентка 2-го курса направления образования Филология и преподавание языков (немецкий язык) Ургенчского государственного университета)

КУЛЬТУРА И ПЕРЕВОД: ПЕРЕДАЧА КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ ЧЕРЕЗ ЯЗЫК

Аннотация. *В статье исследуются взаимосвязи между культурой, переводом и гендером. На примерах из английского, узбекского, немецкого и русского языков анализируются гендерные стереотипы и изменения языковых единиц в переводе. Даются рекомендации по правильной передаче культурных значений.*

Ключевые слова: *культура, перевод, гендер, язык, межкультурная коммуникация, гендерные стереотипы, гендерная дифференциация, социальная роль и статус, культурное наследие.*

Yusupova Gulxumor (PhDl student at the Department of Translation Theory and Practice, Urgench State University, Urgench, 220100, Uzbekistan; e-mail: yusupova.gulkhumor@mail.ru**),**
Matsabirova Durdona Maksudjon qizi (2nd-year student of the educational direction Philology and Language Teaching (German Language) at Urgench State University)

CULTURE AND TRANSLATION: CONVEYING CULTURAL HERITAGE THROUGH LANGUAGE

Annotation. *The article explores the interrelations between culture, translation, and gender. Using examples from English, Uzbek, German, and Russian, it analyzes gender stereotypes and changes in language units during translation. Recommendations are provided for accurately conveying cultural meanings.*

Key words: *culture, translation, gender, language, intercultural communication, gender stereotypes, gender differentiation, social role and status, cultural heritage.*

Kirish. Madaniyat va til o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, biri ikkinchisini shakllantiradi va aks ettiradi. Til madaniyatni yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi, tarjima esa bu jarayonni boshqa til va madaniyatga o'tkazadi. Gender va til o'rtasidagi munosabatlar ham madaniy merosning tarjimada qanday yetkazilishini belgilaydi. Gender stereotiplari, ijtimoiy rol va mavqe til vositasida shakllanadi va tarjimada ularni to'g'ri ifodalash murakkab masala hisoblanadi. Shu bois maqolada madaniyat, tarjima va gender o'rtasidagi bog'liqlik, ularning til vositasida ifodalanishi va turli tillarda qay tarzda o'z aksini topishi tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Madaniyat va tarjima aloqalari bo'yicha E.A.Nida tarjimada madaniy elementlarning muhimligini ta'kidlaydi [2]. Unga ko'ra, tarjimon nafaqat tilni, balki madaniyatni ham mukammal tushunishi kerak. Gender va til masalalarida esa J.Butler genderning ijtimoiy konstruksiya ekanligini va til orqali qayta ishlab chiqarilishini o'rganadi [3]. Shuningdek, Hofstede madaniyatlarni qiyoslab, genderning madaniyatlararo muloqotdagi ta'sirini o'rganadi [4]. O'zbek tilshunosligida G'.S Salomov tarjimaning nazariy asoslarini yoritadi, ammo gender masalalariga to'xtalmaydi [1]. Mazkur maqolada ushbu tadqiqotlar asosida gender, madaniyat va tarjimaning o'zaro aloqalari chuqur tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada adabiyotlar tahlili, matnlarni tanlash va tahlil qilish, qiyosiy tahlil, qiyosiy tipologiya, kontekstual tahlil hamda umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ingliz, o'zbek, nemis va rus tillaridan olingan genderga oid til birliklari madaniy kontekstda o'rganilib, tarjimada ma'no o'zgarishlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Madaniyat insonning ijtimoiy hayotini belgilovchi qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar, dunyoqarashlar va ijtimoiy normalar majmuasidir. Tarjima esa madaniy merosni boshqa til muhitiga o'tkazuvchi vosita sifatida ko'riladi. Shu bilan birga, tarjima madaniyatlararo aloqalarni kuchaytiradi, lekin bu jarayonda ma'no yo'qolishi yoki o'zgarishi mumkin.

Til orqali gender stereotiplari va ijtimoiy rollar ifodalanadi. Tarjima jarayonida bu stereotiplar boshqacha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Har bir madaniyatda gender rollari turlicha bo'lgani sababli, tarjimonda ularni to'g'ri yetkazish katta mas'uliyat talab etadi.

O'zbek tilida jinsni aniq ifodalovchi leksik vositalar nisbatan kam uchraydi. Xususan, kasb va lavozim nomlarini bildiruvchi otlarning qaysi jinsga tegishli ekanligini aniqlash, ko'pincha, matn kontekstiga bog'liq bo'ladi. Masalan, *o'qituvchi, shifokor, quruvchi, sotuvchi, tikuvchi* kabi otlar qo'llanilganida, ularning erkak yoki ayol shaxsga nisbatan qo'llanilganini faqat kontekst yordamida anglash mumkin. Bunday holatda o'zbek tilida aniqlikni ta'minlash maqsadida mazkur otlar yoniga *ayol* yoki *erkak* so'zlarini qo'shish orqali jins ma'nosi aniqroq ifodalanadi (masalan, ayol o'qituvchi, erkak shifokor). Shu bilan birga, o'zbek tilida jinsni aniq ifodalovchi ba'zi otlar mavjud bo'lib, ular orqali shaxsning jinsiga doir ma'lumot

aniq namoyon bo‘ladi. Jumladan, muallim so‘zi erkak o‘qituvchini anglatadi, *muallima* esa ayol o‘qituvchi uchun ishlatiladi. Shuningdek, *hamshira* so‘zi faqat ayol tibbiyot xodimi ma’nosini bildiradi. Mazkur so‘zlar o‘zbek tilidagi jinsiy differensiatsiya jarayonini yoritishda muhim lingvistik vositalardir. Shunday qilib, o‘zbek tilida jinsga nisbatan neytral otlarning ko‘pligi bilan birga, ayrim leksik birliklar orqali jins ma’nosi aniq ifodalanadi. Ushbu leksik xususiyatlar o‘zbek tilining gender leksikasi va ijtimoiy rollarni ifodalashdagi o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Ingliz tilida jinsga nisbatan neytral so‘zlar ko‘proq qo‘llaniladi. Masalan, *chairperson* yoki *firefighter* so‘zlari jinsni bildirmaydi. Shu tariqa, gender tengligini saqlash va stereotiplardan qochish uchun neytral leksik vositalar qo‘llaniladi. Masalan,*The chairperson gave a speech* (majlis raisi nutq so‘zladi). Bu yerda jins aniq ko‘rsatilmagan, shuning uchun erkak yoki ayol sifatida talqin qilinishi mumkin.

Rus tilida jinsni grammatik jihatdan aniq ko‘rsatish uchun so‘z oxiri o‘zgaradi. Bu, asosan, kasb nomlari va shaxsni bildiruvchi boshqa otlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan: *учитель* – erkak o‘qituvchi, *учительница* – ayol o‘qituvchi, *актёр* – erkak aktyor, *актриса* – aktrisa.

Rus tilda jinsiy farqlash grammatik shakllar orqali aniq ifodalanadi, ya’ni so‘z oxiridagi qo‘shimchalar jinsni belgilaydi. Shuningdek, rus tilida sifatlar, olmoshlar va fe’llar ham jinsga qarab o‘zgaradi. Masalan: *он учитель* (u erkak o‘qituvchi), *она учительница* (u ayol o‘qituvchi).

Agar tarjima qilinayotgan tilda jinsiy farqlash mavjud bo‘lsa (masalan, o‘zbek yoki nemis tillarida), rus tilidagi gender grammatik shakllarni to‘g‘ri aks ettirish lozim. Masalan, учитель so‘zini o‘zbek tilida muallim deb, учительница so‘zini esa muallima deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Nemis tilida esa *учитель – Lehrer, учительница – Lehrerin* tarzida tarjima qilinadi.

Agar tarjima qilinayotgan tilda jinsiy farqlash yo‘q yoki neytral shakl ustunlik qilsa, masalan, ingliz tilida *teacher* so‘zi jinsni ko‘rsatmaydi, unda jinsiy ma’noni neytrallashtirish orqali tarjima qilish mumkin. Masalan, *учитель* va *учительница* so‘zlarini ingliz tilida *teacher* deb tarjima qilish jinsiy farqlashni yo‘qotadi, lekin mazmunni to‘g‘ri yetkazadi.

Rus tilida ayrim kasb nomlari jinsiy stereotiplar bilan bog‘liq. Masalan, *медсестра* (ayol hamshira) so‘zi faqat ayol shifokor yordamchisini anglatadi, erkak uchun esa *медбрат* so‘zi ishlatiladi.

Tarjimada bu madaniy stereotiplarni inobatga olish kerak. Masalan, ingliz tilida *nurse* so‘zi jinsni ko‘rsatmaydi va erkak yoki ayolga nisbatan ishlatilaveradi, shuning uchun rus tilidagi jinsiy farqlash ingliz tarjimasida yo‘qoladi.

Rus va nemis tillarida jinsiy farqlash grammatik jihatdan kuchli ifodalangan bo‘lib, otlar, sifatlar va artikllar jinsga qarab o‘zgaradi. Tarjimada bu o‘zgarishlarni to‘g‘ri aks ettirish uchun jinsiy farqlash qoidalarini yaxshi bilish va har bir tildagi grammatik tuzilmalarga mos ravishda tarjima qilish talab etiladi.

Он хороший учитель (U yaxshi erkak o‘qituvchi).

Bu gapda *хороший* (yaxshi) sifat erkak jinsiga mos keladi va *-ий* qo‘shimchasini oladi.

Она хорошая учительница (U yaxshi ayol o‘qituvchi).

Bu gapda esa *хорошая* sifat ayol jinsiga mos kelib, *-ая* qo‘shimchasini oladi. Bu yerda jinsiy farqlash faqat otlarda emas, balki sifatlarda ham aniq aks etmoqda. Rus tilidagi bunday grammatik o‘zgarishlarni tarjimada to‘g‘ri yetkazish uchun tarjimon boshqa tillardagi jinsiy farqlash qoidalarini yaxshi bilishi kerak.

Nemis tilida ham jinsiy farqlash grammatik jihatdan kuchli ifodalangan. Bunda nafaqat otlar, balki sifatlar va artikllar ham jinsga qarab o‘zgaradi:

Er ist ein guter Lehrer (U yaxshi erkak o‘qituvchi).

Bu gapda *guter* sifat erkak jinsiga mos keladi va -er qo‘shimchasini oladi.

Sie ist eine gute Lehrerin (U yaxshi ayol o‘qituvchi).

Bu gapda esa *gute* sifat ayol jinsiga mos keladi. Shuningdek, *eine* artikli ham ayol jinsini ko‘rsatadi.

Nemis tilida sifatlar otning jinsiga qarab o‘zgaradi, bu rus tilidagi jinsiy farqlashga o‘xshash. Lekin nemis tilida artikllar ham jinsni aniqlaydi, bu esa tarjimada alohida e’tiborni talab qiladi.

Tarjimada e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan jihatlar. Rus va nemis tillarida jinsiy farqlash grammatik shakllar orqali aniq ifodalanganligi sababli, tarjimada bu o‘zgarishlarni to‘g‘ri aks ettirish kerak. Jinsiy farqlash o‘zbek tilida mavjud bo‘lmasa-da, nemis tilida jinsiy farqlashni saqlab qolish uchun artikllar va sifatlarning to‘g‘ri shakllarini tanlash zarur.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqolada madaniyat, tarjima va gender o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniyat va til bir-biriga bog‘liq bo‘lib, gender stereotiplari, ijtimoiy rollar va mavqelar til vositasida ifodalanadi. Tarjima jarayonida esa bu gender qiyofalarini boshqa madaniyat va til muhitiga to‘g‘ri yetkazish mas’uliyatli vazifa hisoblanadi. Turli tillarda jinsning grammatik ifodalanishi va gender stereotiplarini aks ettirish usullari har xil bo‘lib, bu tarjimada o‘ziga

xos yondashuvni talab qiladi. O‘zbek tilida jins grammatik jihatdan ifodalanmaganligi sababli gender ma’nosini kontekstual tarzda yoki qo‘shimcha so‘zlar yordamida yetkazish kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘zbek tilida jinsni aniq ko‘rsatuvchi leksik birliklar mavjud bo‘lib, ular gender differensiatsiyasini ko‘rsatadi. Rus va nemis tillarida esa jins grammatik jihatdan aniq ifodalanadi, bu esa tarjimada jinsiy farqlashni saqlab qolishni talab qiladi. Ingliz tilida jinsiy neytrallik keng tarqalgan bo‘lib, gender stereotiplarini chetlab o‘tishda neytral leksik vositalardan foydalaniladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Tarjima nazariyasida genderga oid tadqiqotlarni kengaytirish. Tarjima jarayonida gender stereotiplari va jinsiy differensiatsiyani to‘g‘ri aks ettirish uchun tarjimonlar lingvistik bilim bilan birga gender masalalari bo‘yicha ham yetarli ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak. Shu sababli tarjima nazariyasi va amaliyotida gender masalalari bo‘yicha maxsus tadqiqotlarni kengaytirish lozim.

Gender neytral tarjima usullarini qo‘llash. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillarida gender neytralligini ta’minlash uchun mos leksik birliklar va grammatik vositalarni ishlatish zarur. Masalan, o‘zbek tilida jinsni aniq ko‘rsatmaslik uchun kasb va lavozim nomlarini neytral tarzda qo‘llash mumkin.

Madaniy kontekstni hisobga olish. Tarjima jarayonida gender stereotiplari va ijtimoiy rollar madaniy kontekst bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, tarjimon madaniy farqlarni chuqur o‘rganishi va ular asosida tarjima qilishi lozim. Shu orqali gender stereotiplarini o‘zgartirmasdan yoki yangisini yaratmasdan, asl mazmunni to‘g‘ri yetkazish mumkin bo‘ladi.

Tarjimonlar malakasini oshirish. Gender masalalari va madaniyatlararo farqlarni hisobga olgan holda tarjimonlar malakasini oshirish uchun maxsus o‘quv kurslari va seminarlar tashkil etish lozim. Ayniqsa, tarjima yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun gender va madaniyat bo‘yicha chuqur bilimlar berilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat, tarjima va gender o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur o‘rganish tarjimada mazmunni to‘g‘ri yetkazish va gender tengligini saqlash imkonini beradi. Tarjimonlar madaniy va gender farqlarni to‘g‘ri baholab, gender stereotiplari va jinsiy differensiatsiyani aniq ifodalash uchun lingvistik va madaniy vositalarni mohirona qo‘llashlari lozim. Shu orqali tarjimada madaniy merosning to‘g‘ri va adolatli aks ettirilishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Salomov G‘.S. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent, “Fan”, 1983.
(2). Nida E.A. Linguistics and Ethnology in Translation Problems. The Hague, Mouton, 1964.
(3). Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. New York, Routledge, 1990.
(4). Hofstede G. Cultures and Organizations: Software of the Mind. London, McGraw-Hill, 2010.

Aripova Saodat Taxirovna (Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti o‘qituvchisi, Toshkent, 100074, O‘zbekiston; e-mail: aripova_saodat8822@mail.ru)

HIKOYALAR TARJIMASIDA TARJIMONNING LINGVISTIK HAMDA MADANIY KOMPETENSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy tarjimaning o‘ziga xos jihatlari xususida so‘z yuritiladi. Badiiy asar tarjimasidagi eng muhim jihat bu tarjimonning lingvistik hamda madaniy kompetensiyasi ekanligi olimlar tomonidan ham e’tirof etilganligi muhikama etiladi. Tarjimonning badiiy asar tarjimasida ushbu kompetensiyasidan tashqari, badiiy-estetik jihatlarni to‘g‘ri anglagan holda o‘girishi ham muhim jihat ekanligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *hikoya tarjimasi, kompetentlik, lingvistik va madaniy kompetensiya, estetik jihat.*

Арипова Саодат Тахировна (преподаватель Университета точных и социальных наук, Ташкент 100074, Узбекистан; e-mail: aripova_saodat8822@mail.ru)

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ ПЕРЕВОДЧИКА ПРИ ПЕРЕВОДЕ РАССКАЗОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются специфические аспекты художественного перевода. Утверждается, что ученые также признают важнейшим аспектом литературного перевода языковую и культурную компетентность переводчика. Подчеркивается, что помимо этой компетенции переводчику важно также осуществлять перевод литературного произведения с правильным пониманием художественно-эстетических аспектов.*

Ключевые слова: *перевод рассказа, компетентность, лингвистическая и культурная компетентность, эстетический аспект.*